

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MEVA VA GUL KOMPONENTLI FRAZEMALAR
TAHLILI

Nargiza Ergasheva Shavkatbek qizi

Andijon davlat chet tillar instituti 2-bosqich magistranti nargizaxoliqjonova@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda eng muhim bo'limlaridan biri frazeologiya sohasiga bag'ishlanadi. Unda fitonimik leksika ya'ni o'simlik dunyosining ko'pgina nomlari xususan, meva va gul komponentli frazeologik birliklar haqida so'z yuritiladi.

Kirish so'z: Ibora, fitonimik frazalar, meva, gul, ma'no

ANALYSIS OF PHRASES WITH FRUIT AND FLOWER COMPONENTS IN
ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Nargiza Ergasheva

Master's Degree Student in the field "English language and literature", Andijan State
of Foreign Languages institute

Abstract: This article is devoted to one of the most important fields in linguistics, phraseology. This article provides information about phraseological units with plant and flower components

Key words: Phrase, phytonym phrases, fruits, flowers, meaning

Frazeologik iboralarning turli xil xususiyatlarining tashqi shakliga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda ko'proq frazeologik iboralarning tarkibidagi so'zlar soniga qarab e'ibor beriladi. Tasnif natijasiga, iboralar tabiatiga ko'ra nechta so'zdan tashkil topganini aniqlash mumkin. Ko'pgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki so'zdan ortiq bo'ladi, degan fikrlarni aytadilar. Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir so'zdan iborat iboralar ham bor deb bildiriladilar. Jumladan, professor A. Jafarovning fikricha, bir so'zdan iborat iboralar idiomatik birikmaning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo'ladi. Bu turdagi iboralar qo'shma so'z yoki yakka so'z bilan ifodalanadi, ular to'g'ridan-to'g'ri fikrni anglata olmasligi jihatdan qo'shma so'zlardan farq qiladi. To'g'ri, bir so'z orqali idiomatik ma'no anglatadi. Lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak.

Bu haqda V.V.Vinogradov, A. Abakumov, A. Ashaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir [1;37]. Shu ma'noda frazeolog olim A.V.Kunin ingliz tili frazeologizmlarining ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan. Ammo ba'zi frazeologik

birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu ma'noda frazeologiya tilining umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema bo'lib, bu tizim o'zida o'tmish me'rosni, qadriyatlarni aks ettiradi, avlodan-avlodga o'tadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning ko'pchiligi ma'lum tilning boyish manbaidir. [2;46] "Frazeologiya" atamasi yunoncha "fraz" (phrasis-ifoda, nutq o'rami) so'zidan olingan bo'lsa-da, bu atama turlicha ma'nolarni ifodalashda xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki mo'noda qo'llaniladi: tildagi mavjud jami frazeologik birliklarning jami ma'nosida, hamda shunday birliklarning o'rganuvchi soha ma'nosida. Shu o'rinda fitonimik leksika "...o'simliklar dunyosining ko'gina nomlari, ya'ni daraxtlar, butalar, o'tlar, gullar, sabzavotlar, rezavor mevalar va boshqa o'simliklar nomlarini o'z ichiga oladi". Ingliz tilida eng ko'p uchraydigan fitonimlar: apple ("olma"), banana ("banan"), cherry ("olcha"), nut ("yong'oq"), daisy ("moychchak"), rose ("atirgul").

"apple"
("Olma")- -the round fruit of a tree of the rose family, which typically has thin green or red skin and crisp flesh.[3;47] **a bad**

apple or a rotten apple- komponentli frazeologizmlar tashqi ko'rinishi jozibali, ammo axloqsiz, atrofidagi odamlarga yomon ta'sir ko'rstatish ma'nosida keladi

"banana" (**"Banan"**)- a long curved fruit which grows in clusters and has soft pulpy flesh and yellow skin when ripe. **to**

do/lose one's banana- jahli chiqish **to**

drive someone bananas- emotsional holatni hamda insonning ruhiy salomatligida muammosi borligi ma'nosida keladi (**"cherry"**)

("Olcha")- small, soft round stone fruit that is typically bright or dark red.

Bowl of cherries -ajoyib, yoqimli yoki ko'chma ma'noda beparvo yashash ma'nosida keladi.

A bite at/of the cherry – imkoniyat, yoki ikkinchi bor harakat qilish degan ma'noda keladi.

("daisy") -(**moychechak**)- a small grassland plant that has flowers with a yellow disk and white rays. It has given rise to many ornamental garden varieties.

as fresh as a daisy-yoqimli, yangi quvnoq, jozibali. Bu frazeologik ibora ijobiy baholovchi konnotatsiya bilan ifodalanadi.

(Rose) (Atirgul)- a prickly bush or shrub that typically bears red, pink, yellow or white fragrant flowers. **No**

rose without a thorn o'zbek tilida kamchiliksiz inson yo'q ma'nosiga to'g'ri keladi. (Tikonsiz atirgul yo'q)

O'zbek tilida eng ko'p uchraydigan fitonimlar shaftoli, olma, malina; atirgul, lola; qo'ziqorin, zig'ir; eman, terak, chinor; tarvuz, qovun. Masalan, ko'ngliga zig'ir yog'day urmoq -yoqib tushmoq qo'ltig'idan tarvuzi tushdi-hayron qoldi, kutulmagan vaziyatga duch keldi qovun tushurdi-aytmaslik yoki qilmasligi kerak bo'lgan ishni qilib qo'ydi, uyaltirib

qo'ydi

Shunday qilib, frazeologik birliklar tilning alohida birligi bo'lib, ular erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik shakllangan obrazli turg'un so'z birikmalaridir. Ularning aksariyati xalq tomonidan yaratilgan, ular xalqning urf-odatlarini, madaniyati, turmush tarzi, yashash sharoitini ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Yo'ldoshev B., Xalilov Q. Shoir Erkin Vohidovning frazeologizm qo'llash mahorati haqida, Samarqand.200. (monografiya)
2. Doniyorov X, Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil'. – T.: "Fan".1988.
3. A.V Kunin -english-russian phraseological dictionary. 1967
4. Shavkat Rahmatullayev-O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati-1978
5. Bekayeva M, (2020). Bekayeva Malika-O'zbek tilini kognitiv o'rganish omillari, vazifalari va ahamiyati